



MUSIQIY TA'LIMDA USTOZ-SHOGIRD MUNOSABATINING PEDAGOGIK VA IJROCHILIK AHAMIYATI

Isroil Rustamov

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti
"Vokal va cholg'u ijrochiligi pedagoglari tayyorlash" kafedrası
o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18403072>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-yanvar 2026 yil

Ma'qullandi: 24-yanvar 2026 yil

Nashr qilindi: 28-yanvar 2026 yil

KEY WORDS

*musiqiy ta'lim, ustoz-shogird
an'anasi, cholg'u ijrochiligi,
individual ta'lim, musiqiy
pedagogika, ijodiy tarbiya*

ABSTRACT

Mazkur maqolada musiqiy ta'lim tizimida ustoz-shogird munosabatining tarixiy, pedagogik va ijrochilik ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, an'anaviy o'zbek musiqasi va cholg'u ijrochiligi ta'limida individual yondashuv, shogird shaxsini shakllantirish, ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda ustozning roli yoritiladi. Zamonaviy ta'lim sharoitida innovatsion texnologiyalar va qadimiy ustoz-shogird an'alarining uyg'unligi masalalari ochib beriladi. Tadqiqot musiqiy pedagogika va ijrochilik amaliyotida ustoz-shogird munosabatini takomillashtirishga qaratilgan

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyat va san'atni rivojlantirish, yosh avlodni yuksak ma'naviyat, estetik did va kasbiy mahorat ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan madaniyat va san'at sohasini tubdan rivojlantirishga qaratilgan farmon va qarorlar musiqiy ta'lim tizimini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish, milliy ijrochilik maktablarini asrab-avaylash va ularni ilmiy-pedagogik asosda rivojlantirishga xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.11.2017 yilda e'lon qilingan "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3391-sonli qarorining 3-bandida ta'kidlanganidek, "O'zbekistonda maqom san'atini yanada rivojlantirish, bu borada shakllangan ijro va ijodiy maktablari va an'analarni, buyuk bastakorlar, hofiz va sozandalar merosini chuqur ilmiy asosda o'rganish va qayta tiklash" [1 b. lex] alohida belgilab qo'yildi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, professional ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan qarorlarida ustoz-shogird an'alarini tiklash va mustahkamlash, milliy ijrochilik maktablarini saqlab qolish hamda ularning uzviy davomiyligini ta'minlash muhim vazifa sifatida belgilangan. Bu esa musiqiy ta'lim jarayonida nafaqat zamonaviy pedagogik texnologiyalar, balki asrlar davomida shakllangan an'anaviy ta'lim usullarini ham ilmiy asosda uyg'unlashtirishni taqozo etadi.

O'zbek milliy musiqasi, xususan, cholg'u ijrochiligi san'ati asrlar davomida og'zaki-professional an'ana, ya'ni "ustozdan – shogirdga" tamoyili asosida rivojlanib kelgan. Ushbu tizimda bilim va ijro tajribasi faqat texnik ko'nikmalar orqali emas, balki ijrochilik madaniyati, sahna odobi, musiqiy tafakkur, estetik qarashlar hamda ma'naviy qadriyatlar majmui orqali avloddan avlodga o'tgan. Shu bois ustoz–shogird munosabatlari musiqiy ta'limning eng muhim va ajralmas pedagogik mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi globallashuv, raqamli texnologiyalar va axborot oqimlari kuchaygan davrda musiqiy ta'lim tizimi oldida yangi vazifalar paydo bo'lmoqda. Bunday sharoitda o'qituvchi nafaqat mohir ijrochi va bilimdon pedagog, balki o'quvchi shaxsini chuqur anglay oladigan, uning ijodiy salohiyatini rivojlantira oladigan ma'naviy yetakchi sifatida maydonga chiqmoqda. Shuning uchun ham ustoz–shogird munosabatlarini ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan o'rganish, ularning zamonaviy ta'lim jarayonidagi o'rnini aniqlash dolzarb masala hisoblanadi.

Ustoz–shogird munosabatining tarixiy va nazariy asoslari.

O'zbek milliy musiqasi asrlar davomida og'zaki an'ana asosida, ya'ni "ustozdan shogirdga" tamoyili orqali avloddan-avlodga o'tib kelgan. Bu tizim nafaqat ijrochilik ko'nikmalarini, balki musiqiy tafakkur, estetik did va kasbiy axloqni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Musiqashunoslik tadqiqotlarida ustoz–shogird munosabati milliy ijrochilik maktablarining asosiy tayanchi sifatida e'tirof etiladi [1].

Zamonaviy musiqiy ta'lim sharoitida ustozning roli.

XXI asr axborotlashgan jamiyat sharoitida o'qituvchining vazifalari yanada murakkablashdi. Elektron darsliklar, masofaviy ta'lim va raqamli texnologiyalar keng joriy etilayotgan bo'lsa-da, cholg'u ijrochiligi ta'limida ustozning bevosita muloqoti hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki shogirdning ijodiy va psixologik rivojlanishiga rahbar bo'luvchi shaxsdir.

Individual yondashuv va shogird shaxsini shakllantirish.

Cholg'u ijrochiligi ta'limining individual xarakterga egaligi har bir shogirdga alohida yondashuvni talab etadi. Talabalarining qobiliyati, xarakteri va psixologik holati turlicha bo'lgani sababli ustozdan sabr-toqat va pedagogik mahorat talab etiladi. Shogirdning ijobiy sifatlarini rag'batlantirish va salbiy jihatlarni bosqichma-bosqich bartaraf etish samarali ta'limning muhim shartidir [2].

Pedagogik muloqot va ishonch muhitining ahamiyati.

Ustoz va shogird o'rtasidagi samimiy munosabat ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini belgilovchi omillardan biridir. Ishonch va hurmatga asoslangan muloqot shogirdning mustaqil fikrlash, ijodiy tashabbus ko'rsatish va kasbiy mas'uliyatini oshiradi. Aksincha, nosamimiy munosabat ijodiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ustoz shaxsiga qo'yiladigan kasbiy va axloqiy talablar.

Cholg'u ijrochiligi o'qituvchisi yuqori darajadagi ijrochilik mahorati, puxta nazariy bilim va pedagogik madaniyatga ega bo'lishi lozim. O'qituvchining shaxsiy namunasi, mas'uliyatliliigi va kasbiy etikasi shogird tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Mashhur pedagoglar ta'kidlaganidek, o'qituvchi shogird shaxsini kamsituvchi usullardan tiyilishi va har bir ijobiy jihatni qo'llab-quvvatlashi zarur [3].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, musiqiy ta'lim tizimida ustoz–shogird munosabatlari nafaqat ta'lim berish vositasi, balki shaxsni har tomonlama kamol toptirishga xizmat qiluvchi murakkab va ko'p qirrali pedagogik jarayon hisoblanadi. Ayniqsa, cholg'u ijrochiligi kabi

individual ta'limni talab qiladigan sohalarda bu munosabatlarning o'rni beqiyosdir. Ustoz shogirdga nafaqat ijro texnikasi va repertuarni o'rgatadi, balki unda musiqiy tafakkur, estetik did, mas'uliyat, sahna madaniyati va kasbiy axloqni shakllantiradi.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, ustoz–shogird munosabatlarining samaradorligi o'qituvchining professional mahorati, pedagogik tajribasi, psixologik sezgirligi va shaxsiy namunasiga bevosita bog'liqdir. O'qituvchi tomonidan yaratilgan ishonchli va samimiy muhit shogirdning ijodiy faolligini oshiradi, uning mustaqil fikrlashi va musiqaga bo'lgan mehrini kuchaytiradi. Aksincha, nosamimiy yoki avtoritar munosabatlar iqtidorli yoshlarning san'atdan uzoqlashishiga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, ustoz–shogird an'anasi o'zbek milliy musiqasining uzluksiz rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. Mazkur an'ananing zamonaviy musiqiy ta'lim tizimiga moslashtirilgan holda davom ettirilishi milliy ijrochilik maktablarini saqlab qolish va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Prezident qarorlarida belgilangan vazifalar musiqiy ta'lim muassasalari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, hozirgi zamon musiqiy ta'limida ustoz–shogird munosabatlarini ilmiy asosda takomillashtirish, an'anaviy tajribani zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish orqali barkamol, mustaqil fikrlovchi va yuqori malakali musiqachi-pedagoglarni tayyorlash imkoniyati yanada kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Fitrat A. O'zbek mumtoz musiqasi va uning tarixi. – Toshkent.
2. Rajabov I. Maqom asoslari. – Toshkent: O'qituvchi.
3. Karimov I. Musiqiy pedagogika asoslari. – Toshkent.
4. Yunusov R. O'zbek cholg'u ijrochiligi an'analari. – Toshkent.
5. Abdullayev S. Musiqqa ta'limida pedagogik mahorat. – Toshkent.
6. <https://lex.uz/docs/-3581613>